

**RAQAMLASHGAN JAMIYAT MUHITIDA ZAMONAVIY
KADR LARNI TAYYORLASH MASALASI**

Xudayorova Zebuniso Otanazarovna

NamDu mustaqil izlanuvchisi,

QK xizmatchisi, Chirchiq OTQMBYU

*Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
matquliyevjasur@gmail.com +998958304990*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inson kapitali, uning bugungi kunda jamiyatning barcha jabhalarida, xususan ta'lif tizimidagi o'rni va roli yoritilib, ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Mavzu doirasida inson kapitali tushunchasining sotsiologik, tarixiy, ilmiy, terminologik jihatlari obyekt sifatida tadqiq etilgan. Maqolada raqamlashgan jamiyat sharoitida inson kapitali va ta'lif tizimining bog'liqligi, aloqadorligi o'rganilgan. Inson kapitalini yuksaltirish asnosida jamiyatda mobillikni faollashtirish, ko'nikma va odatlarni shakllantirish, hamda daromadlar o'sib barqarorligini ta'minlash haqidagi xulosalar berilgan. Zamonaviy investitsiya hisoblanmish Inson kapitali va uning zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy hayotidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kapital, raqamlashgan jamiyat, inson, qobiliyat, ta'lif, kompetentsiya, iqtisodiyot, ko'nikma, ijtimoiylashuv, investitsiya, sotsial mobillik, Yangi O'zbekiston, ta'lif, bandlik, jamiyat.

ABSTRACT

In this thesis, the role of education, especially higher education, in the development of human capital was sociologically analyzed. although the topic requires a large amount of scientific theoretical study, it was studied as a dialectic of modern educational trends, social cooperation, and interrelationship. Conclusions on increasing social and economic empowerment through education, activating social norms and social mobility in young people, forming skills and habits, and ensuring the growth and stability of incomes are given.

Key words: human, ability, education, competence, economy, health, socialization, society, investment, social mobility, higher education, employment.

KIRISH (ВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION) Mehnat bozorida ish joylarining intellektuallashuvi, raqamli iqtisodiyotga o'tish va bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, dunyoning barcha mamlakatlarida inson kapitaliga sarmoya kiritish hamda uning sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahonda inson kapitali insoniyatning

va har bir davlatning taqdirini belgilaydigan asosiy mezoniga aylandi.

Zamonaviy sharoitda inson kapitalini shakllantirish uzliksiz ta’lim tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, insonda natijalarga erishish va daromad olish uchun o‘z kasbiy faoliyatida qo‘llashi mumkin bo‘lgan ma’lum bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarni doimiy ravishda shakllantirishni nazarda tutad. Dunyoning ilg‘or xalqaro ilmiy tadqiqot institutlarida va ijtimoiy-falsafiy masalalarni tadqiq etuvchi markazlarda inson kapitali konsepsiysi, inson kapitalini shakllantirish mezonlari va uni rivojlantirish omillarini ishlab chiqish, inson kapitalining tuzilishi va turlari hamda uning jamiyat modernizatsiyasi, barqaror rivojlanish va ijtimoiy rivojlanish omili ekanligi kabi muammolar tadqiq etilmoqda. Mamlakatimizda bugungi kunda inson kapitali ni shakllantirish, uning insonlar hayotini yaxshilash uchun muhim tomonlarini tahlil etish yuzasidan qator strategik vazifalar amalga oshirilmoqda. Vaholanki, yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham inson kapitalini rivojlantirishga alohida urg‘u berilgan. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida “inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” va bu orqali mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshliligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish, “davlat – jamiyat – inson” tamoyili asosida ishslash tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Inson kapitali o‘z tarkibida bir qator ijtimoiy-biologik yaxlitlik komponentlarini qamrab oladi va uni sotsiumga yo‘naltirib boradi. Bular demografik, sog‘liqni saqlash, ta’lim, mehnat, madaniy, fuqarolik, ma’naviy-axloqiy, axborotlarga egalik komponenti va shu kabilardan iborat. Belgilangan tarkibiy qismlarning har biri kapital sifatida ijtimoiy zarur faoliyat turlari va funksional imperativlarga mos keladi. Shu bilan birga, inson kapitaliga xizmat qiluvchi uch xil salohiyat turini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular: a) shaxs va jamoaning ehtiyoj, qobiliyat va ijtimoiy hayotni qo‘llab-quvvatlashga oid komplekslar tizimi; b) ehtiyoj, qobiliyat va malakaga oid tizimlar majmuasi; v) odatiy hayot faoliyatidir. Inson kapitalining rivoji ham shaxsning ongi, odob-axloqi, ma’naviyati, dunyoqarashi, talab-ehtiyojlarining qondirilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog‘liqdir. Jamiyat qanday bo‘lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui bo‘lgan inson kapitali ham unga mos bo‘ladi. Inson aql-idrok sohibi bo‘lganligi uchun real dunyodagi voqealarni biladi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi. Inson kapitalining yuksalishiga uni o‘rab turgan barcha ijtimoiy muhitda ro‘y berayotgan voqealar ta’siri kuchli bo‘ladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da inson faktori, inson omili va inson kapitali xususidagi sharhlar “inson” va “omil” so‘zlariga bag‘ishlangan izohlarda, afsuski, mavjud emas .

Ammo, bu so‘zlar hamda ish kuchi, inson faktori, inson omili birikmalarining tilimizda amaliy qo‘llanilish an’analariga tayanib, ularning anglatgan ma’nolari

xususida mulohaza yuritish mumkin. “Ish kuchi” o‘zbekchada odamning biologik va fizik imkoniyatlari (“kuch”) tayangan holda mehnat faoliyatini amalga oshirilgan vaziyatlarga qo‘llaniladigan iboradir. Masalan: 1960-yillarda Angliya va Fransiya mamlakatlari iqtisodining ish kuchiga bo‘lgan talabi asosan sobiq mustamlakalardan kelgan qora ishchilar hisobiga qoplanar edi (Gazeta – archive). «Inson faktori» 1980-yillarda tilimizga rus tili orqali kalka yo‘li bilan tarjima qilish tufayli(chelovecheskiy faktor - inson faktori) kirib kelgan birikma va tushunchadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW)

Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish, fan va texnikaning, madaniyat va san’atning taraqqiyoti insonning yanada yaxshi yashashi, ma’naviy dunyosining kamolga erishishi uchundir. Bu jarayonlarning kaliti ta’lim tizimi va insonga beriladigan ta’limning sifati va hajmidir. Shu sababli davlatlar va jamiyatlar har bir inson uchun ta’lim olish imkoniyatini yaratab berishga intilishi lozim. XXI asrda bu hol aksiomadek haqiqatga aylanmoqda. Inson kapitali tushunchasining nazariy asoslari o‘tgan asrning o‘rtalarida faylasuf, sotsiolog, siyosatchi olimlari va iqtisodchilar orasida vujudga kela boshladi. Jumladan XX asr oxiri va XXI asrlarda g‘arb olimlaridan G. Bekker, T. Shuls, P. Druker, M. Bloug, D. Romer, D. Minser, S. Polacheck, N. Menkyu, D. Benxabib, E. Denison, R. Solov, J. Kendrik, S. Kuznets, S. Fabrikant, M. Shpigel, D. Veyl, A. Gujon, R. Lukas, D. Koen, M. Soto, V. Luts lar, MDH mamlakatlari hududida esa L. Simkina, A. Koritskiy, Y. Korchagin, I. Skoblyakova, V. Birbkov, S. Kovalenok, Z. Xabibullina, A. Podberezkinlar o‘rganilgan. Zamonaviy inson kapitali tushunchasining iqtisodiy nazariyalari T. Shuls, G. Bekker, E. Denison, R. Solov, J. Kendrik, S. Kuznets, S. Fabrikant, I. Fisher, R. Lukas va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Inson kapitali nazariyasini iqtisodiy jihatdan o‘rganganda institutsional nazariya, neoklasik nazariya, neo-Keynesianizm va boshqa xususiy iqtisodiy nazariyalarga ajratish mumkin.

Inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari, nazariy-metodologik asoslari va ijtimoiy-falsafiy jihatlari, milliy qadriyatlarning va raqamlashtirishning inson kapitalini rivojlantirishdagi roli va ahamiyatini mamlakatimizda akademik olimlarimizdan R. Abdullayeva, Q. Abduraxmonov, S. G‘ulomov, Sh. Akramov, M. Abdullayeva, Q. Nazarov, F. Yuldasheva, G. G‘affarova, G. Jalalova, M. Sharipov, M. Sodirjonov, Z. Abdullayevalar tomonidan ham o‘rganilib, ilmiy jihatdan izlanishlar olib borilmoqda.

Insonning intellektual va amaliy salohiyatining ahamiyati hamda inson kapitali konsepsiyasining o‘rtaga kelishida ilk tamal toshlarini qo‘ygan siyosiy iqtisod fanining asoschisi A. Smit edi. U insonni ijtimoiy boylikning bir qismi va ishlab chiqarishning pirovard maqsadi, deb bilar edi. XIX asr oxirida boshqa bir mutafakkir A. Marshall esa boylik to‘plashni inson taraqqiyoti bilan bevosita bog‘lab quyidagicha tushuntirgan edi: “Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish bu faqat inson hayotini ta’minalash, uning

ehtiyojlarini qondirish va uning jismoniy, aqliy va ma'naviy imkoniyatlarini o'stirish uchundir. Ammo insonning o'zi bu boylikni ishlab chiqarishning asosiy vositasidir, bu boylikning pirovard maqsadi ham insondir” .

XX asrning 60-yillaridan keyin inson kapitalining deyarli barcha ta'riflarida keng qamrovli talqin prinsipi kuzatildi: – inson kapitali nafaqat bilmlar yig'indisi balki, insondagi ko'nikma, malaka va qobiliyatlardir; – insondagi imkoniyat va salohiyatlarni bosqichma-bosqich kapitalga aylantirish; – salomatlik, ta'lim darajasini rag'batlantirish, motivatsiya hamda invistitsiya kiritib borish mohiyatan inson kapitalining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini o'zgartirmaydi. Inson kapitali rivojida ta'lim masalalari muhim o'rin tutishini ilgari surgan ingliz olimi P. Uolshning fikriga ko'ra: “XIX asrdan boshlab, ko'plab iqtisodchilar insonni jamiyat rivojining asosiy kapitali toifasiga kiritadilar. Chunki, inson kapitali bu – xarajatlarni foyda bilan qaytarish uchun sarflangan harajatlarni talab etadi va qo'shimcha tarzda unga xizmat qiladi. Biroq, bunday xulosaga kelish umumiy ma'noda e'tirof qilingan va o'zaro munosabatlarga kirishishda barcha odamlar uchun asosiy kapital hisoblangan ta'lim va tarbiya harajatlarining barcha turlari iqtisodiy qiymat sifatida belgilanadi”. Iqtisodiy o'sish omillari tizimida 1960 yilda iqtisodchilar T. Shuls va G. Bekker tadqiqotlarida “Inson kapitali” kategoriyasi jiddiy o'rganilgan. “Inson kapitali” omili faqat inson (ta'lim va kasbiy mahoratlar bo'yicha)ga sarflangan investitsiyalar majmui sifatida tushunilib, uning natijasida sotsiumning ishlash qobiliyati oshdi. Yillar o'tib, Ushbu tushunchaga oid kategoriyalar shaxs va umuman jamiyatning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan bilim, ko'nikma hamda malakalar majmui sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi”. XXI asrga kelib, “Inson kapital” ining o'rniiga “bilimlar iqtisodiyoti asri” degan atama ahamiyat kasb eta boshladi. Mazkur iborani birinchi bo'lib nemis olimi F. Mechlar 1962-yilda “Bilimlar iqtisodiyoti” degan asarida qo'llagan edi. Bugungi kunga kelib, XXI asr iqtisodiyotini tavsiflashda Ushbu atamaga tez-tez murojaat qilinib, yangi texnologiyalar asrida yangi bilimlarni shakllantirish, taqdim etish, foydalanish (iste'mol qilish) va takomillashtirishda alohida o'rin tuta boshladi. Inson kapitali ishlab chiqarish poydevorining hal qiluvchi elementidir; ta'lim iqtisodiyot va jamiyat uchun inson kapitalini rivojlantirish uchun mas'uldir. Ta'lim inson kompetentsiyalari, ijtimoiy me'yorlar, odatlar va ishlab chiqarishni yaxshilash orqali jamiyatning hayot sifatini oshiradi.

Bu iqtisodiy-ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun mamlakatning ta'limga sarmoyasidir. Yangi ming yillikda bilimlar zamonaviy muhim jarayonlarni aks ettiruvchi atamalar “globallashuv”, “axborotlashuv”, “tarmoqlar” va “ekomuhitni yaxshilash va saqlab qolish”da namoyon bo'ladi. Ma'lumki, XX asrning asosiy yutug'i jismoniy mehnat ishtirokchilari (konveyerlar, sanoatni avtomatlashtirish va b.) samaradorligini oshishi bilan ahamiyat kasb etgan. Sotsiolog P. Drukkerning ta'kidlashicha, XXI asrning dominant egalari albatta, “bilimli” va “ilmli” kishilardir.

Ularni mutaxassis sifatida yaxshiroq tayyorlash, har qanday mamlakatning intellektual yutug‘i hisoblanadi. Bilimli mutaxassis bo‘lish har qanday ishda intellektual mehnatning yuqori unumdorligini ta’minlaydi. Mamlakatdagi intellektual salohiyat davlatga investitsiyalar jalb etish imkoniyatini oshiradi va inson kapitalining barqaror, uzoq muddatli o‘sishi uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Ma’lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandard yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at va sport sohasidagi iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz.

Bugun kundalik hayotimizda Yangi O‘zbekiston degan tushuncha juda tez-tez yangramoqda va chuqur ma’no kasb etib bormoqda . Ushbu davr eng avvalo, xalq hokimiyyatchiligining amaldagi ifodasini o‘zida aks ettirayotganligi bilan yanada ahamiyatlidir. Bundan tashqari keying besh yil davomida amalga oshirilayotgan barcha

“Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib- o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi”¹, deya ta’kidlagan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Ha chindan ham bugungi shiddat bilan tinimsiz rivojlanayorgan kunlik yangilik va o‘zgarishlar aqlbovar qilmis darajada o‘sayotgan ,integratsiyalashuv jarayonlarida eng avvalo tinimsiz o‘qib- o‘rganishlar va izlanishlar natijasida egallanayotgan bilim va ilm-fan omilagina insonga tayanch bo‘la oladi. Zero ilmsiz inson hech vaqosi yo‘q kimsadek go‘yo.

Imom Buxoriy bobomiz to‘plagan muborak hadislardan birida: “Yoshlikda o‘rganilgan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir”, deb aytildi. Buyuk allomalarimiz ana shunday hikmatlarga amal qilib, ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlarni amalga oshirganlari va umumbashariy tafakkur rivojiga hissa qo‘sghanlari tarixdan yaxshi ma’lum.

Ana shunday qutlug‘ an’analarni davom ettirib, yurtimizda yangi xorazmiylar, farg‘oniylar, beruniylar, ibn sinolar. mirzo ulug‘beklar, navoiylarni tarbiyalab yetkazish-nafaqat vazifamiz, balki tarix va kelajak oldidagi muqaddas burchimizdir².

O‘z –o‘zidan ko‘rinib turibdiki, yuroridagi omillarning barchasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, islohatlarning tub mohiyati aynan madaniyat, ilm- fan va yuksak ma’naviy qarashlarni yanada yuqori pag‘onalarga olib chiqish hamda ertanagi kunga bo‘lgan xalq ishonchini kuchaytirishga asoslanganligini amaldagi ifodasidir³.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномаси.2020 й

² Мирзиёев .Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Тошкент: ”Ўзбекистон” нашриёти, 2021.-Б.51.

³ Худаёрова З.О. “Digitization in the educational system of new Uzbekistan: problems and prospects”(Янги Ўзбекистон

Shu o'rinda, mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida oliygochlarni soni 141 taga yetkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta'lif muassasasining filiallari ochildi. Holbuki 2016-yilda respublikamizda oliygochlarning soni 77 ta edi. Keyingi besh yilda oliy ta'lifga qqabuk kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming nafar yoshlar uchun talab bo'lish imkoniyati yaratildi. Toshkent shahrida eng yuksak xalqaro talablarga javob beradigan "Yangi O'zbekiston" universiteti tashkil etildi. Hozirgi vaqtida yurtimizda "Yangi O'zbekiston mакtab ostonasidan boshlanadi" degan g'oya asosida mакtab ta'lifi tizimida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.⁴

Bu ishlarning zamirida avvalo mamlakatimiz va xalqimizning buyuk kelajagi, farovon va obod turmushi, erkin va tinch-osuda hayot tarzini ta'minlash hamda barqaror rivojlanish yo'liga erishish yotadi. Chunonchi yuqoridagi barcha maqsadlarga boorish uchun eng to'g'ri, maqbul va albatta mukammal yo'l bu ilm-ma'rifat yo'lidir. Manashu joyda fikrimiz isboti o'laroq quyidagi jumlalarni keltirib o'tmoqchiman: "Ma'orifdan, funun va madaniyatdan mahrum qolg'on xalq jaholat panjalarini orasida xamir kabi ezilg'ondek, af'oli zaminadan ham o'z nafsining yoqasini bo'shatolmas"-deb yozgan edi mashhur ma'rifatparvar adibimiz Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yohud ahloq" nomli asarida⁵. Ha chindan ham barcha jaholat zanjirlari-yu, qulflarini buzuvchi narsa bu ilmdir.

Aynan shu sabablar inobatga olingan holda muhtaram prezidentimiz tamonidan mamlakatimizni rivojlantirishga va taraqqiyotimizni yanada yuksaltirishga qaratilgan "Harakatlar Strategiyasi" va "Taraqqiyot strategiyasi" davlat dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, bu davlat dasturlarida ham ilm-fan va madaniyat, ma'naviyat sohasiga alohida e'tibor va g'amho'rlik bilan yondoshganlar. Bu ishlarning barchasi xalqimiz ertasi bo'lmish yosh avlodni ma'nani jismonan va aqlan yetuk hamda barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun xizmat qiladi, 2017-2021- O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Bu esa davlat va xalq o'rtasidagi aloqa ular orasidagi munosabatni o'zgartirishni, ya'ni xalq idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi zarurligini bildiradi.⁶

Ayniqsa, so'ngi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Taraqqiyot strategiyasi doirasida Jahon miyyosida murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqr

таълим тизимини ракамлаштириш: муаммо ва истиқболлар). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 12, Issue 10, October 2022.(SJIF 2022=8.252)

⁴ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021.-Б.- 52-53.

⁵ Али, Мухаммад Ўз-ўзингни англаб ет.- Тошкент: "Шарқ" нашриёти, 2012.-Б.347.

⁶ Фаффарова Г.Ф. Мураккаб тизимларда ахборот генерацияси. Тошкент."Ношир"нашриёти. 2021.-Б.178.

tahlil qilgan holda keying yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqorolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida⁷ bir nechta ishlarni amalga oshirish belgilangan bo‘lib, ulardan birida vazifalar quyidagicha belgilangan:

“Taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida 2022-yilda:

a)1 apreldan boshlab nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota –onalarning oyiga 3 million so‘mgacha bo‘lgan to‘lovleri daromad solig‘idan ozod etilsin.

b)o‘rta ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat byudjetidan 605 milliard so‘m ajratilsin.”⁸

Bugun hayotimizga Kundalik.com, Edu.uz, XEMINS kabi bir nechta onlayn platformalar ham kirib kelgan bo‘lib, ular o‘z o‘rnida raqamlashtirish jarayonlarining ta’lim tizimiga naqadar shiddat bilan kirib kelgani-yu uning bir nechta ijobjiy ustunlik jihatlariga misol bo‘la oladi.

Ushbu yaratilgan barcha imkoniyatlardan kelib chiqib bugun yoshlarimiz, davlatimiz va prezidentimiz tamonidan berilayotgan imkoniyat va ishonchga mos ravishda ta’lim tizimi, ilm-fan va innovatsion loyiha hamda startaplarni yaratishda o‘zlarini ko‘rsatib, munosib javob qaytarmoqdalar.

Shu o‘rinda dunyoni larzaga solgan pandemiya holatida offlaysn ta’lim tizimi o‘rnini vaqtinchalik egallagan onlayn ta’lim tizimi jarayonlari xalqimiz joniga opo kirganligini tan olmaslikning hech qanday imkoni yo‘q. Zero ushbu ilm-fan kashfiyoti bo‘lmish raqamlashtirilgan dastuplar va onlayn platformalar orqali biz xalqimizning va insoniyatning tayanch ustuni bo‘lmish ta’lim tizimini uzilishlarsiz olib borishga erisha oldik.

Ko‘pgina rivojlangan davlatlar, xususan, Yaponiya, Malayziya, Singapur, Janubiy Koreya davlatlarining rivojlanishida ta’lim tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bugungi kundagi rivojlanish bizning ham oldimizga ushbu davlatlar singari mehnat bozorida talab katta bo‘lgan sohalar bo‘yicha kadrlar tayyorlash masalasini qo‘ymoqda. Hozirgi davrda jahon bozorida shunday kasb va hunarlar vujudga kelganki, ularning aksariyati universitet va kollejlarda emas, balki oddiy o‘quv markazlarida uch yoki bir yilda emas, juda qisqa vaqt ichida tayyorlanmoqda. Bunga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, Singapurda ham ta’limga iqtisodiy taraqqiyotning birinchi galdag‘i vazifasi sifatida qaralgan. Ta’lim sohasini rivojlanirish

⁷ 2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараккиёт стратегияси тўғрисида ПФ-60, <https://lex.uz>, 28.01.2022. –Б-2,3.

⁸ Ўша манба. –Б-3

bilan bog‘liq masalalar amerikacha ta’lim modeli bilan o‘zaro aloqaga kirishish yo‘li orqali hal etildi. Bugungi kunda Yaponiyada joriy qilingan ta’lim tizimi butun jahonga o‘rnak bo‘larli darajada taraqqiy etgan. Xuddi yurtimizdagi kabi o‘z ichiga boshlang‘ich va o‘rta ta’limni qamrab oluvchi majburiy ta’lim yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda yaponiyalik bolalarning deyarli 100%i qamrab olinadi. Ularning 96%i esa 2 bosqich maktab ta’limida tahsil olishadi. Zamonaviy yapon pedagogikasida ta’lim tizimi bilan uzviy uyg‘unlashgan ahloqiy tarbiya tamoyili shakllangan. O‘rta asrlardayoq maktablarda amaliy etikaga e’tibor qaratila boshlangan edi. Yaponiya e’tibor bering: hududiy jihatdan tabiiy boyliklar va milliardlab daromad keltiradigan zaxiralarga ega bo‘lmasada rivojlanishning eng ilg‘or namunasihisoblanmish “Yapon mo‘jizasi” ham aynan shu davlatda ta’lim va inson kapitaliga asoslangan edi. Bundan tashqari yana quyidagi mamlakatlarni eslash ham shu o‘rinda joiz:

AQSH (Dunyoning eng rivojlangan va demokratik qarshlarga ega bo‘lgan mamlakati);

Fransiya (Kapitalistik inqiloblarni dunyoda XVII va XVIII asrlarda nafaqat iqtisodiy soha balkim ijtimoiy va siyosiy jabhalarda ham boshlab bergen davlat);

Germaniya(kam sonli aholi va 2-jahon urushidan keyin bo‘yniga ilingan qarzlar hamda trillion dollarlik zararlar ham bu davlatni har bir resurs ya’ni inson omilidan samaraliroq foydalanishga majbur qilgan esada, bu bugungi kunda o‘z mevasini juda hosildor ko‘rinishda bermoqda);

Finlandiya (dunyoda aholisi eng baxtli hisoblanadigan bu mamlakat o‘zining “Fin ta’lim tizimi” nomi bilan mashxur bo‘lgan insonga e’tibor va ikki tamonlama ishonchga asoslangan o‘z modeli bilan har yili dunyonli lol qoldirib kelmoqda);

Buyuk Britaniya (Yevropa oqsoqoli, tom ma’noda Fransiya va ushbu davlatda eng dastlabki oly ta’lim muassasalar faoliyat boshlagan bo‘lib, ular bugungi kunda ham insonning jamiyat hayotida eng yuqori ta’sir koiffisentiga ega ekanligini isbotlab kelishmoqda) kabi rivojlangan davlatlarda inson kapitali asosiy boylik va eng qimmatli manbai, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mezoni hisoblanadi. Ayniqsa, inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish, uning ijodiy fazilatlari va qobiliyatları, inson kapitaliga sarmoya kiritish masalasi dunyo fanining asosiy va markaziy muammolaridan biridir. Shu sababli ham ilmiy tadqiqotlarda inson kapitali, uning ravnaqiga e’tibor, shart-sharoit yaratish, mamlakatni tez rivojlanishida inson kapitalining ahamiyatiga doir ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS) Bugungi kunda zamonaviy dunyo nazdida resurslar o‘z doirasini kengaytirib bormoqda, endi an’anaviy hisoblab kelingan uch resurs: mehnat, yer, kapital omillariga fan-texnika tarraqiyoti omili ham qo‘sildi, axborot va bilimlar esa eng muhim resurslarga aylandi. Innovatsion iqtisodiyot bevosita ana shu asosda shakllanib, ushbu iqtisodiyotda inson va uning salohiyati hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yil – “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ham aslida manashunday kapitallar bilan iqtisodiy va ijtimoiy hayotimizni boyitish uchun yaratilgandir. Qabul qilingan yangi taraqqiyot strategiyasida yettita ustuvor yo‘nalish bo‘yicha “Inson qadri uchun – 100 ta maqsad” belgilangan. Ular orasida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishga oid vazifalar bor. Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart Sh.M.Mirziyoyev

Jamiyat turmushi va iqtisodiyotda inson faktorining (Human Factor) va umuman inson kapitali (Human Capital) tushunchasining ommalashuvi yetakchi rivojlangan davlatlarda bu xususdagi tadqiqotlarning avj olishiga olib keldi. Amerikalik ikki iqtisodchi olim - Teodor Shuls (1979) va Geri Bekker (1992) inson kapitali nazariyasining asoslarini ishlab chiqdilar va bu tadqiqotlari uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldilar. Bu olimlarning inson kapitali tushunchasiga bergen ta’rifini ham qisqacha ushbu satrlarda umumlashtirish mumkin: «inson kapitali – shaxsning o‘zi va umuman, jamiyatning ko‘p sonli ehtiyojlarini qoplashga xizmat qiladigan bilimi, qobiliyati va ko‘nikmalari yig‘indisidir». Inson kapitali nazariyasi asoschilarining bu qisqacha ta’rifi vaqt o‘tishi bilan insoniyat turmushida yuzaga kelgan o‘zgarishlar tufayli yil sayin kengayib va mukammallahib bormoqda. Bugungi kunda inson kapitali haqidagi nazariya iqtisod fanining mustaqil tarmog‘iga – bilim iqtisodi yo‘nalishiga aylandi.⁹

Inson kapitali tushunchasining markazida albatta har doim inson bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Ammo bugungi kunda bu tushunchaning zamirida yaxshi ta’lim olgan, ijodkor va tashabbuskor, yuqori professionalizmga ega inson yotmoqda. Binobarin, yuqori texnologiyalarga asoslangan va innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotni faqat ana shunday professional ishchi, injener-texnik xodim, menedjer va boshqaruvchilarning armiyasi vujudga keltirishi va boshqarishi mumkin. AQSH, Yaponiya va G‘arbiy Yevropadagi boshqa rivojlangan mamlakatlarning namunasi inson kapitali hozirgi davrda zamonaviy iqtisod va jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy ishlab chiqarish va ijtimoiy faktori ekanligini ko‘rsatmoqda. Inson kapitali tushunchasi inson faktori va insonning imkoniyatlari (resurslari) tushunchalarining yig‘indisi bo‘lishdan tashqari endi uning iqtisodiy kategoriya ekanligi barcha tarafidan tan olinmoqda.¹⁰

Biz YAIM ni o‘sirish uchun ham albatta ushbu “kapital”ni ko‘paytirmog‘imiz zarur. Boisi shuki, kuchli va ilm-salohiyatga ega bo‘lgan shaxslarga ega davlat iqtisodiyoti har qachon baquvvat va barqaror bo‘lib, keyingi islohatlar uchun zamin

⁹ Kurganskiy S.A. Vvedeniye v teoriyu chelovecheskogo kapitala. - SPb.: GUEF, 1999. -60 S.; Korchagin Y. A. Sovremennaya ekonomika Rossii. - Rostov-na-Donu: Feniks, 2008 ISBN 978-5-222-14027-7.

¹⁰ Paulman .V F. O chelovecheskom kapitale > http://lit.lib.ru/p/paulxman_w_f/text_0900-1.shtml (December, 2014)

hozirlanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘lik sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan ta’limga yo‘naltirilgan investitsiyalar nafaqat mamlakatni rivojlantirishning muhim usuli, inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitalini takomillashtirib moddiy fapovonlik va sog‘lom turmush tarziga erishiladi. Shuni ta’kidlash kepakki, inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Inson qobiliyatlar, bilimlari, ko‘nikmalar va tajribasi har bir yosh fuqaroning shaxsiy mulki hisoblanadi. To‘liq o‘rta ma’lumotga ega kishilar bilan universitet diplomiga ega mutaxassislar o‘rtasidagi farq solishtirilganda, oliv ma’lumotli kishilar topgan daromad va keltirilgan foydadagi afzallik keskin farqlar bilan ajralib turishini ko‘rish mumkin. Masalan, Indoneziyada oradagi farq 80 foizdan oshsa, Ushbu ko‘rsatkich Paragvayda 300 foizni tashkil etgan. uning faoliyati makon-zamonda cheksiz bo‘ladi, chunki bilimlar ma’lumotlar manbasi sifatida axborotlarni nafaqat manzilga tezda etkazadi, balki tahliliy prognoz asosida istiqbolni belgilaydi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlar, xususan, Yaponiya, Malayziya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning rivojlanish jipayonida ta’lim tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bugungi kundagi rivojlanish jipayonlari bizning ham oldimizga ushbu davlatlar singapi mehnat bozorida talab katta bo‘lgan sohalar bo‘yicha kadrlar tayyorlash masalasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Hozirgi davrda jahon bozorida shunday kasb va hunarlar vujudga kelganki, ularning aksariyati universitet va kollejlarda emas, balki oddiy o‘quv markazlarida uch yoki bir yilda emas, juda qisqa vaqt ichida tayyorlanmoqda. Bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Yuqoridagi ta’riflardan shunday xulosa qilish mumkinki, inson kapitali bu oddiy bir termin emas, balki zamonning eng ilg‘or qatlami bo‘lgan yetuk kadrlarga berilgan nisbatdir. Ushbu nisbat berilgan jumla bugungi raqamlashgan jamiyatning barcha talablariga javob bera oluvchi shaxslarga qo‘llanilishi juda o‘rinlidir. Zero, inson kapitali uchun tikilgan sarmoya hamisha o‘zini ming chandon oqlay oladi. Biz buni ushbu “kapital” ni yetishtirib berishda beqiyos o‘ringa ega bo‘lgan ta’limga berilgan e’tibor va investitsiyalarning keyingi davrda olib keladigan foyda ko‘lami orqali ham bilishimiz mumkin.

Inson kapitali nafaqat xalqaro darajada, balki mahalliy sharoit, shu jumladan, hududiy xususiyatlarga ko‘ra ham ta’lim va amaliy faoliyat jarayonida inson tomonidan qo‘lga kiritilgan bilim, ko‘nikma hamda qobiliyatdir. U birinchi navbatda, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish va amalga oshirishga imkon beradi. Kapital

ta’lim japayoni va ijodiy faoliyatda shakllanadi hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning ma’lum bir sohasida qo’llaniladi. Biz oliy ta’lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko’tarish, oliy o‘quv yurtlari tizimini yanada rivojlantipish, sohadagi mavjud muammolarni baptaraf etish, pirovardida ilmfanning yirik o‘choqlariga aylantirishga alohida e’tibor qaratamiz. Aholining oliy ta’lim bilan qampab olinganlik darajasi muttasil oshirib boriladi. Har qanday inson kapitalining sifat darajasi mamlakat miqyosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga bevosita ta’sir ko‘psatadi. Bunda biz (ekspertlar fikri ham) doimiy ta’kidlab keladigan “ta’lim faqatgina shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyati emas, balki jamiyat va qolavepsa millatning jamoaviylikga yo‘naltirilgan kelajagiga sapmoya sifatida ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlashimiz yangicha yondashuv bo‘ladi. Inson kapitali ma’lum bir chegara qiymatidan oshib ketganda, jamoaviylikka innovatsion ta’sir ortadi. Oliy ma’lumotli odamlarning yuqori foizga erishishi, bizning nazarimizda “qadriyat va udumlarrga asoslangan jamoaviylik”ni “innovatsion jamoaviylik” ka yoki yaratuvchi xalq (millat)ga aylantirish kafolatini beradi. Yuqorida ta’kidlanganidek, har qanday inson kapitalining rivojlanganlik va mukammalligi asosiy kopponent hissoblanadigan ta’lim sifatiga va davomiyligiga bevosita bog‘liq. Zamonaviy oliy ta’limga alohida urg‘u berilar ekan, endi diplomli mutaxassis emas, balki raqobatbardosh, malakali va irodasi mustahkam, yangicha davr ruhiga mos fazilatlar (bosiqlik, vazminlik, diplomatiya, muloqot madaniyati, ijobiy xarakter va shu kabilalar)ga ega kadrlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Rivojlangan davlatlar va korporatsiyalarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, universitetda olingen ta’lim pragmatik belgilarni ifodalovchi darajaga qarab joylarda bandlik darajasining nafaqat miqdori, shu bilan birga sifatini ham oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.-B.51-230.
2. O‘zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 2020 yil 25 yanvar.
3. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida PF-60, <https://lex.uz>. 28.01.2022. –B-2,3.
4. Pitep F. Dpukep. Эффективный управляющий. – М.: BCI, 1994. – С. 268.
5. Kopitskiy A. V. Введение в теорию человеческого капитала // http://sibupk.nsk.su/New/04/chairs/c_ectheory/kapital/book1.htm
6. Kurganskiy S.A. Введение в теорию человеческого капитала. - SPb.: GUEF, 1999. -60 S.; Korchagin Y. A. Современная экономика России. - Rostov-na-Donu: Feniks, 2008 ISBN 978-5-222-14027-7.
7. Becker G. S. Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education. – University of Chicago press, 2009.// Becker G. S. Human

capital and the economy //Proceedings of the American philosophical society. – 1992. – Т. 136. – №. 1. – С. 85-92.

8. Kamenskiy Y. A. Концептуализация фопмирования человеческого капитала в социоэкономической системе пегиона // Научниэ сообщения. Экономика и уппавлениэ. – 2010. – №5. – С. 102–110.

9. Xadjalova X. M. Человеческий капитал совпеменной сэми // Креативная экономика. – 2014. – №11 (95). – С. 62–72.

10. Paulman .V F. O человеческом капитале > http://lit.lib.ru/p/paulxman_w_f/text_0900-1.shtml (December, 2014)

11. Ali, Muhammad // O‘z-o‘zingni anglab yet.- Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2012.-B.347.

12. G‘affarova G.G‘. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasi. Toshkent. “Noshir”nashriyoti. 2021.-B.178.

13. Sodirjonov M. M. Innovatsion taraqqiyot yo‘lida inson kapitalini rivojlanish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2020. – №2 (88). – B. 57.

14. Sodirjonov, M. "Inson kapitali rivoji shaxsning ongi, bilimi, axloq odobi, dunyoqarashiga bog‘lik."."Yangi O‘zbekiston" gazetasi 10 (2022).

15. Sodirjonov M. M. Inson kapitali pivojlanish jarayonlarining etnosotsiologik xususiyatlari (Farg‘ona vodiysi misolida). Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. – B. 94.

16. Xudayorova Z.O. “Digitization in the educational system of new Uzbekistan: problems and prospects”(Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimini raqamlashtirish: muammo va istiqbollar). ASADEMIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 12, Issue 10, October 2022.(SJIF 2022=8.252)